

“TOVAR VA TRANSPORT VOSITALARINING BOJXONA QIYMATINI ANIQLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI”

Sirochev Mexroj Bobirovich

Bojxona instituti Bojxona tartibga

solinishi va bojxona to‘lovlari

kafedrası o‘qituvchisi,

E-mail: sirochevmexroj@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bojxona qiymati mazmun mohiyati, uning tashqi savdodagi o‘rni va bojxona qiymatini aniqlashda xalqaro davlatlar tajribasi o‘rganilgan hamda amaliyotdagi kamchiliklar va ularga yechim bo‘ladigan takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: tashqi savdo, bojxona protseduralari, bojxona qiymati, sun‘iy intellekt, iqtisodiy barqarorlik, xalqaro tashkilot, Jahon savdo tashkiloti, Jaxon bojxona tashkiloti.

ANNOTATSIYA

В данной статье рассматривается значение таможенной стоимости, ее роль во внешней торговле, опыт международных стран по определению таможенной стоимости, а также предлагаются пути устранения недостатков на практике.

Ключевые слова: внешняя торговля, таможенные процедуры, таможенная стоимость, искусственный интеллект, экономическая стабильность, международная организация, Всемирная торговая организация, Всемирная таможенная организация.

ABSTRACT

This article examines the importance of customs value, its role in foreign trade, the experience of international countries in determining customs value, and also suggests ways to eliminate problems in practice.

Key words: foreign trade, customs procedures, customs value, artificial intelligence, economic stability, international organization, World Trade Organization, World Customs Organization.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta‘minlash, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish, ichki ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish va ular uchun qulay tadbirkorlik muhitini yaratishda bojxona xizmati

muhim ahamiyat kasb etadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatda bojxona siyosatini to'g'ri amalga oshirish tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarini qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni rag'batlantirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, eksport tovarlarini jahon bozorlaridagi raqobatbardoshlik darajasini oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon xo'jaligi tizimiga samarali integratsiyalashuvini ta'minlash bilan birga, davlat budjeti daromadlar qismini boyitishga hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirilayotgan va olib chiqilayotgan tovarlarga bojxona qiymatini to'g'ri aniqlash orqali davlat budjeti daromadlar qismiga pul mablag'larni to'liq tushishiga olib kelib, davlat iqtisodiyotini jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini tezlashtiradi, iqtisodiyotni rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bojxona qiymatining mohiyati va ahamiyati bo'yicha dunyoning bir qancha olimlari o'zlarining ilmiy-tadqiqotlarini olib borishgan. Jumladan rus olimi, professor A.N.Kozyrinning fikricha "Bojxona qiymati – bu sotuvchi va xaridor o'rtasida qatnashuvchi uchinchi shaxs, ya'ni bojxona organi tomonidan aniqlanadigan tovarning alohida qiymati hisoblanadi"¹.

V.Belyashev bojxona qiymatiga quyidagicha ta'rif beradi: "Amaliyotda bojxona qiymati deb, muayyan qo'shimchalar va chegirmalar asosida tuzatishlar kiritilgan, shuningdek bojxona to'lovlarini undirilishi uchun yagona baza sifatida asos bo'lgan, tovar uchun amalda to'langan va to'lanishi lozim bo'lgan tovarning real qiymati hisoblanadi"²

Bojxona qiymati — qonunga muvofiq belgilanadigan va bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish maqsadida foydalaniladigan tovar qiymatidir. Bojxona qiymati o'tkaziladigan bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida bojxona organiga deklarant tomonidan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda ma'lum qilinadi (deklaratsiyaga kiritiladi). Bojxona qiymatini aniqlash to'g'ri va xujjatlar bilan tasdiqlangan ma'lumotlarga asoslanishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

Bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning "Bojxona qiymati strukturasi"ni quyidagicha tasvirlash mumkin:

Tovar narxi (Ishlab chiqarish xarajati (xom ashyo, butlovchilar); Sarflangan materiallar (el.energiya va h.k.); Ma'muriy xarajatlar (oylik, soliq va h.k.); Asbob-uskuna amortizatsiyasi va h.k.) + **Transport va sug'urta xarajatlari** (Tashish; Yuklash; Tushirish; Qayta yuklash ...) + **Boshqa**

¹ Козырин А. Таможенная пошлина / Москва. 1998. С.299.

² Беляшов В.А. Таможенный энциклопедический справочник. В 2-х томах. / Под ред. И.Ю. Краснянского. Москва: Летопис, 1999. С.165.

xarajatlar (Vositachilik xizmatlari; Litsenzion to'lovlar; Qayta sotish tushumlari; va boshqalar)

Bugungi kunda bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashning 6ta usuli mavjud.

- olib kiriladigan tovarga doir bitimning qiymati bo'yicha; (1-usul)
- aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymati bo'yicha; (2-usul)
- o'xshash tovarga doir bitimning qiymati bo'yicha; (3-usul)
- qiymatlarni chegirib tashlash asosida; (4-usul)
- qiymatlarni qo'shish asosida; (5-usul)
- zaxira usul. (6-usul)



1-usul olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlashning asosiy usuli hisoblanadi.



Агар оlib кириладиган товарнинг боjхона қийматини аниқлашнинг 1-усулини қўллаш мумкин бўлмаса, кейинги усуллар кетма-кетликда қўлланилади. Бунда ҳар бир кейинги усулнинг қўлланилишига, агар боjхона қийматини аниқлашда олдингисидан фойдаланиш мумкин бўлмаса, йўл қўйлади. 4 ва 5-усуллар тескари кетма-кетликда қўлланилиши мумкин.



1-усул қийматли асосга эга бўлган ташқи савдо битимларига мувофиқ оlib кириладиган товарнинг боjхона қийматини аниқлашда қўлланилади.



2 ва 3-усуллар илгари 1-усул билан аниқланган айнан бир хил ёки ўхшаш товарларга доир битим қийматидан боjхона қийматини аниқлаш учун асос қилиб олинадиган база сифатида фойдаланишга асосланади. Бунда декларант ёки боjхона брокери томонидан амалда мавжуд бўлган ташқи савдо битимлари нархи ва товарларнинг Ўзбекистон Республикаси чегараси орқали оlib ўтилиши тўғрисидаги ҳужжатлар асосида тасдиқланган маълумотларни қўлайди.

4 ва 5-усуллар боjхона қийматини ҳисоблаб чиқаришнинг қуйидаги асосларини назарда тутати:



4-усул товарларнинг дастлабки ҳолати ўзгармаган ҳолатда (ёки қайта ишланган ҳолатда, агар қайта ишланганлик ҳолати товарларнинг нархига таъсирини аниқлаш мумкин бўлса) сотиладиган нархга асосланади;



5-усул товар экспортгер мамлакатда ишлаб чиқариш ва оlib чиқиш учун кетган харажатлар тўғрисидаги ахборотларга асосланади.

Мазкур усулларнинг қўлланилиши учун зарур бўлган маълумотларни олиш муайян қийинчиликлар билан боғлиқ бўлганлиги сабаблунларнинг қўллаш кетма-кетлиги декларант ёки боjхона брокери томонидан ўзгартирилиши мумкин.

6-усул ўзидан олдинги усуллардан ҳеч бирини қўллаш имконияти мавжуд бўлмаганда қўлланилади. 6-усул бўйича боjхона қиймати боjхона органларида мавжуд бўлган нарх маълумотлари асосида аниқланади. Боjхона органлари боjхона қиймати декларациясида мавжуд бўлган ахборотларни йиғиш, умумлаштириши ва тизимлаштиришини таъминлайди.

Bugungi kunda amaliyotda uchrab turgan ba'zi qiyinchiliklar va kamchiliklar.

a) 1-usulni qo'llashning minimal talabi tovar tashqi savdo oldi-sotdi bitimiga muvofiq olib kelinishi lozim. Biroq, tashqi savdo shartnomasi mavjud bo'lmagan hamda bitim xususiyati va tovarni olib o'tish xususiyati 1-usul qo'llanilish talablariga javob bermasada, bojxona qiymati 1-usul bo'yicha taqdim etilgan holatlar aniqlanmoqda.

b) Bojxona kodeksi talablariga muvofiq bojxona qiymatini aniqlash usullari ketma-ketlikda qo'llanilishi, bunda har bir keyingi usulning qo'llanilishiga, agar bojxona qiymatini aniqlashda oldingisidan foydalanish mumkin bo'lmasa yo'l qo'yilishi belgilangan. Biroq, olib kiriladigan tovarning bojxona qiymati 1-usulni qo'llashning minimal talablariga (oldi-sotdi shartnomasi mavjud va BYUDning C-grafasida shartnomaning IDN raqami ko'rsatilgan) muvofiq bo'lsada, 1-usul qo'llanilmasdan 6.1-usul bo'yicha BYUD taqdim etib kelinmoqda. Vaholangki, ushbu holatlarda deklaratsiyalovchi shaxs tomonidan BQD-2 shaklining 7-grafasiga (avvalgi usullarni qo'llanilmaslik sabablari) "oldi-sotdi shartnomasi mavjud yemas" va shunga o'xshash sabablar ko'rsatilgan holda BYUD taqdim etilgan.

v) Bojxona kodeksining 318-moddasiga muvofiq bojxona qiymati deklaratsiyasi to'ldirilmaydigan holatlar keltirib o'tilgan. Unga asosan olib o'tiladigan tovarlar bojxona to'lovlaridan ozod etilgan bo'lishi lozim bo'lsada, to'liq bojxona to'lovlaridan ozod etilmagan tovarlar bo'yicha (bojxona yig'imi to'lanishi lozim bo'lgan holatlarda) ham BQD to'ldirilmasdan BYUDlarni taqdim etish holatlari kuzatilmoqda.

Bilamizki bojxona qiymatini aniqlashning asosiy maqsadi bu bojxona to'lovlarini xisoblash.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida boj stavkalarining quyidagi turlari qo'llaniladi:

boj undiriladigan tovarlarning **bojxona qiymatiga** nisbatan foizlarda hisoblanadigan advalor stavkalar;

boj undiriladigan tovarlar birligi uchun belgilangan miqdorda hisoblanadigan xos stavkalar;

bojning advalor hamda xos turlarini o'z ichiga oladigan aralash stavkalar.

Biz biladigan advalor stavkada undiriladigan bojxona to'lovlari bevosita bojxona qiymatiga bog'liq. Ya'ni advalor stavkali bojlarning qo'llanilishi ichki bozorni bir xilda himoyalab turadi va har qanday tovar narxi tebranishlari byudjet daromadlarini o'zgartira olmaydi, ya'ni tovarning narxi o'sishi yoki pasayishi foiz stavkasiga hech qanday ta'sir o'tkaza olmaydi balki narxlar o'zgarishi bilan u ham muntazam o'zgarib boradi.

Bevosita davlat byudjetiga utkazilishi kerak bo'lgan mablag'lar hozirgi kunning dolzarb muammosi bo'lgan **bojxona qiymatiga** chanbarchars bog'liq bo'lib qolmoqda. Tadbirkor bojxona to'lovlarini to'lamaslik yoki kamroq to'lash maqsadida bor imkoniyatlardan foydalanadi ya'ni bojxona qiymatini pasaytirishga turli yo'llar izlaydi.

Bojxona qiymatiga bog'liq bo'lmagan tovarlar birligi uchun belgilangan miqdorda hisoblanadigan xos stavkalar esa, buning ya'ni bojxona qiymatiga bog'liqlilik xususiyatini yoqotadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, hozirgi kunda mavjud bo'lgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashdagi mavjud muammolarni hal etish va ushbu sohadagi mexanizmni yanada takomillashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1. Advalor stavkalaridan mutlaqo voz kechish yoki bojxona qiymatini aniqlash jarayonida kamchiliklar yoki shubha bo'ladigan bo'lsa har bir tovar uchun xos stavkalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Bojxona qiymatiga bo'lgan bog'liqlik yoqoladi va tadbirkorlar tomonidan bojxona qiymatini pasaytirib yoki oshirib ko'rsatishga sabab ham qolmaydi. (3818-sonli O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroriga uzgartirish kiritish.)

2. Tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash bo'yicha milliy qonunchilikni xalqaro qonunchilikka muvofiqashtirish, shuningdek bojxona qiymatini aniqlashda Inkoterms xalqaro yetkazib berish shartlarini qo'llash bo'yicha me'yoriy hujjat qabul qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-3818-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi "Bojxona ma'murchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6005 sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-122 sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
6. Pardayev T., Suyunov A., Shadmankulov A. Bojxona qiymati. Darslik. / Toshkent: "Yangi asr avlodi". 2016. B.15.
7. Turdiyev B. va boshqalar. Bojxona to'lovlari va bojxona qiymati. Amaliy qo'llanma. Toshkent: 2014. B.33.
8. Yevropa Ittifoqi Bojxona kodeksi. <https://pravo.ua/articles/tamozhennyj-kodekseuropejskogo-sojuza-analiz-osnovnyh-polozhenij-i-novell/>
9. <https://mag.wcoomd.org/>